



THE DEPICTION OF PORTRAITS IN THE TRANSLATION OF BOZORG ALAVI'S "HER EYES"

Hulkar Murotova

Comparative Linguistics, Linguistic Translation Studies

Master's Student, 1st Year

Tashkent State University of Oriental Studies

hulkaroyurodova1@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

R.Kh. Sharipov

Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies

Doctor of Philology

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: portrait depiction, artistic image, Persian literature, artistic style, character, epithet, metaphor.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the artistic features of portrait depiction in the famous novel چشم‌هایش ("Cheshmhoyash") by Bozorg Alaviy, a prominent representative of 20th-century Iranian literature. The study examines the role of portraiture in reflecting the characters' appearance, facial expressions, eye depiction, and psychological state. In addition, the article discusses the translation skills of Ahmadjon Qurbonbekov, who directly translated the work into Uzbek, focusing on how portraits are rendered in the translation. The study concludes that portrait depictions serve as an important artistic tool for revealing the inner world of the characters.

BO'ZO'RG ALAVIYNING "UNING KO'ZLARI" ASARI TARJIMASIDA PORTRETNING BERILISHI

Hulkar Murotova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

hulkaroyurodova1@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

R.X. Sharipov

*TDSHU dotsenti, filologiya fanlari doktori
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: portret tasviri, badiiy tasvir, fors adabiyoti, badiiy uslub, obraz, epitet, metafora.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr Eron adabiyotining taniqli namoyandasi Boʻzoʻrg Alaviyning mashhur romani چشم‌هایش (“Cheshmhoyash”) asarida portret tasvirining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qahramonlarning tashqi qiyofasi, yuz ifodasi, koʻz tasviri hamda psixologik holatini aks ettirishda portret tasvirining roli oʻrganiladi. Bundan tashqari, ushbu asarni bevosita oʻzbek tiliga tarjima qilgan Ahmadjon Quronbekov tarjima mahorati, tarjima matnida portretning berilishiga ham toʻxtalib oʻtiladi. Tadqiqot natijasida portret tasvirlari asarda qahramonlarning ruhiy dunyosini ochishda muhim badiiy vosita ekanligi aniqlanadi.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ПОРТРЕТОВ В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ БҶЗОРГ АЛАВИЙ «ЕЁ ГЛАЗА»

Хулкар Муротова

*Сравнительное языкознание, лингвистическая переводология
Студентка магистратуры, 1 курс
Ташкентский государственный университет востоковедения
hulkaroyurodova1@gmail.com
Ташкент, Узбекистан*

Р.Х. Шарипов

*Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения
Доктор филологических наук
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: изображение портрета, художественное изображение, персидская литература, художественный стиль, персонаж, эпитет, метафора.

Аннотация: В статье анализируются художественные особенности изображения портретов в известном романе چشم‌هایش («Cheshmhoyash») Бўзорга Алавий, выдающегося представителя иранской литературы XX века. В исследовании рассматривается роль портретов в отражении внешности персонажей, выражений лица, изображения глаз и их психологического состояния. Кроме того, обсуждаются переводческие навыки Ахмаджона Куронбекова, который непосредственно перевёл произведение на узбекский язык, с акцентом на то, как портреты переданы в переводе. Результаты исследования

показывают, что портретные изображения являются важным художественным средством для раскрытия внутреннего мира персонажей.

Kirish. Badiiy adabiyot inson hayoti, ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi turli jarayonlarni tasvirlash orqali ma'naviy va estetik qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim san'at turidir. Har bir badiiy asarda qahramon obrazini yaratishda turli tasviriy vositalardan foydalaniladi.

Kishilarning asarda badiiy so'z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi portret deb ataladi. Portretga yana qahramonning gap ohangi, o'ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlar munosabati bilan uning yuzida bo'ladigan o'zgarishlar (mimika) ham kiradi. Portret ma'lum darajada kishining ichki dunyosini in'ikos ettiradi.

Yozuvchilar adabiy asarlarda qahramonlar ruhiyatini, xarakterlarini ochishda ularning tashqi qiyofalari, ya'ni portretlarini chizishga jiddiy e'tibor beradilar. Ko'pincha qahramonlar portreti ularning tashqi ko'rinishlaridagi belgilarni jamlash yo'li bilan hosil etiladi.

Shuningdek portret tasviri orqali qahramonning tashqi ko'rinishi, yuz ifodasi, harakati hamda ruhiy holati tasvirlanadi. Adabiyotshunoslikda portret tasviri qahramon xarakterini ochib berishda muhim vosita sifatida qaraladi. Yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va individual xususiyatlarini ham ifodalaydi. Shu bois portret tasviri badiiy asarda obraz yaratishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

XX asr fors adabiyoti inson ruhiyati va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur yoritgan asarlar bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan romanlar orasida چشم‌هايش “Uning ko'zlari” asari alohida o'rin egallaydi. Asar muallifi Bozorg Alaviy bo'lib, u fors adabiyotida ijtimoiy-psixologik roman janrining rivojiga katta hissa qo'shgan adiblardan biridir. Mazkur roman o'zining chuqur psixologik tasvirlari, obrazlarning murakkab xarakteri va badiiy tasvir vositalarining boyligi bilan ajralib turadi. Asarda qahramonlarning tashqi qiyofasi, ayniqsa ko'z tasviri muhim badiiy element sifatida namoyon bo'ladi. Roman nomining o'zi ham portret tasvirining asardagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Portret tasviri badiiy asarda bir necha vazifani bajaradi:

1. Qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash
2. Qahramon xarakterini ochib berish
3. Ruhiy holatini ifodalash
4. Asarning estetik ta'sirini kuchaytirish

Ko'plab yozuvchilar portret tasviridan qahramonning ichki dunyosini ifodalash uchun foydalanadilar. Ayniqsa psixologik romanlarda portret tasviri muhim ahamiyatga egadir. Fors adabiyotida ham portret tasviri qadimdan keng qo'llanib keladi. Klassik adabiyotda ko'proq go'zallik tasviri ustuvor bo'lgan bo'lsa, zamonaviy nasrda portret tasviri psixologik mazmun bilan boyidi. Bu jarayon ayniqsa XX asr nasrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Roman matnida portret tasviri muallifning

individual uslubini namoyon etuvchi muhim elementlardan biri hisoblanadi. Asarda qahramonlarning tashqi qiyofasi oddiy tasvir bilan cheklanmaydi, balki ularning ruhiy holatini ham aks ettiradi. Muallif bosh qahramonlardan Farangizning ko‘zlarini tasvirlashga alohida e’tibor qaratadi. Ko‘z tasviri orqali qahramonning his-tuyg‘ulari, iztiroblari va ichki kechinmalari ifodalanadi. Shu sababli romanda ko‘z tasviri ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, qahramonning nigohi orqali uning ichki ziddiyatlari yoki ruhiy iztiroblari ifodalanadi. Bu esa portret tasvirining psixologik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Ahmadjon Quronbekov tomonidan amalga oshirilgan چشم‌هایش romanining o‘zbekcha tarjimai asarning badiiy ruhini va muallif uslubini saqlab qolishga intilgani bilan ajralib turadi. Roman matnida portret tasvirlari, ayniqsa, qahramonlarning ko‘zlari, yuz ifodalari va nigohlari orqali berilgan psixologik holatlar tarjimada ham tabiiy va ta’sirchan tarzda aks ettirilgan. Qahramonlarning tashqi qiyofasi va ruhiy holatini ifodalovchi portret tasvirlari o‘zbek tilida ham obrazli va ta’sirchan tarzda berilgan. Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan portretni tahlil qilamiz. Asl matnda:

پردھی «چشم‌هایش» صورت ساده‌ی زنی بیش نبود. صورت کشیده‌ی زنی که زلف‌هایش مانند قیر مذاب روی شانها جاری بود. هم‌چیز این صورت محو مینمود. بینی و دهان و گونه و پیشانی بارنگ تیره‌ای نمایان شده بود. گویی نقاش میخواست است بگوید که صاحب صورت دیگر در عالم خارج وجود ندارد و فقط چشمها در خاطرهای او اثری ماندنی گذاشته‌اند. چشمها با گیرندگی عجیبی به آدم نگاه میکردند. خیرگی در آنها مشهود نبود، اما پرده‌های حائل بین صاحب خود و تماشاکننده را میدریبند و مانند پیکان قلب انسان را میخراشیدند. آیا از این چشمها میبایستی در لحظهای بعد اشک بریزد؟ یا اینکه خنده‌ی تلخی بجهد؟ اما دور لبها خنده‌های محسوس نبود. آیا چشمها تنگ و کشیده بودند که بخندند و تماشاکننده را به زندگی تشویق کنند و یا دلخستهای را بچرانند؟ آیا این چشمها از آن یک زن پرهیزکار از دنیا گذشته بود، یا زن کام‌بخش و کامجویی که دنبال طعمه میگشت، یا اینکه در آنها هم‌چیز نهفته بود؟ آیا میخواستند طعمهای را به دام اندازند؟ یا لاله طلب و تمنی میزدند؟ آیا صادق و صمیمی بودند یا مودی و گستاخ؟ عقیف یا وقیح؟ آیا بیاعتنائی جلوهگر شده بود؟ یا التماس و التجاء؟ اگر التماس میکردند چه میخواستند؟ این نگاه، این چشمهای نیم‌خمار و نیم‌مست چه داستانها که نقل نمیکردند؟

هم‌چیز این صورت عادی بود: پیشانیبلند، بینی کشیده و قلمی، چانه‌ی باریک، گونه‌های استخوانی، زلفهای ابریشمی، لبهای باریک، جمع‌اثر خاصی در بیننده باقی نمیگذاشتند.

Tarjima matnida esa:

«Uning ko‘zlari» asari bir ayolning soddagina portreti edi, xolos. Unda tim qora sochlari yelkalariga yeyilib tushgan, yuzi cho‘zinchoq bir ayol tasvirlangandi. Hamma narsa uning chehrasida

yashiringanday edi. Burun, og'iz, yonoq va peshona qoramtir rangda tasvirlangandi. Go'yo rassom chexraning egasi endi bu olamda yo'q, faqat uning ko'zlarigina xotiramda o'chmas iz qoldirgan demoqchiday bo'lardi. Bu ko'zlar ajoyib bir joziba bilan odamga boqib turardi. Ularda sinchkovlik sezilmasdi, ammo o'z sohibasi bilan tomoshabin o'rtasidagi pardani teshib, tig kabi inson qalbiga sanchilardi. Bu ko'zlardan lahza o'tmay yosh oqishi kerakmidi? Yoki bo'lmasa jozibali tabassum bilan boqmoqchimidi? Ammo lablarda zarracha kulgi asari sezilmasdi. Yo bu sehrlil ko'zlar tomoshabinni hayotga undashga, yoki bir dilxastaning bag'rini tilishga chog'langanmikan? Yo bo'lmasa bular olamdan o'tgan bir taqvodor ayolning ko'zlarimidi? Yoki lutf-u latofat bilan o'ljasini qo'lga tushirib, O'z maylini qondirmoqchi bo'lgan ayolning ko'zlari mikan? Yo bo'lmasa bularning hamma-hammasini o'zida mujassamlashtirganmikan? Xo'sh, qaysi biri edi? Bu ko'zlar vafodor, samimiy edimi yoki yovuz, ochofat-midi? Iffatlimidi yo behayo? Beparvolik namoyon midiyoki o'tinch va iltijo? O'tinch bo'lsa-chi? Nima istardi ular? Bu nigoh, bu xumor ko'zlar ne-ne sir asrorni bayon qilmasdi?!

Uning qiyofasi oddiygina edi: baland peshona, qirraburun, ingichkadan kelgan dahan, yonoqlarining suyagi turtib chiqqan, sochlari ipakday mayin, lablari nozik xullas, tomoshabinga o'zgacha bir ta'sir kiladigan ortiqcha narsasi yo'q edi...

Bo'zo'rg Alaviyning "Uning ko'zlari" asaridagi ayol portreti fors matnida soddaligi bilan ochilgan bo'lsada, uning ruhiy holati va hissiy dunyosi ko'zlar orqali chuqur ifodalanadi. Asl matnda ko'zlar "tig' kabi qalbiga sanchiladi" deb tasvirlanib, tabassum va yosh o'rtasida sirli, noaniq holatni yaratadi. Shu bilan birga, yuzning boshqa qismlari - burun, lab, yanoq, peshona - oddiy va ta'sirsiz ko'rsatilgan bo'lib, portretning markaziy elementi sifatida ko'zlar ustun turadi. Matn o'quvchiga ayolning tashqi ko'rinishi bilan birga, uning ichki dunyosini ham his qilish imkonini beradi. O'zbekcha tarjimada esa mazmun asosan saqlangan, lekin ba'zi obraziy ifodalar va stilistik ohang biroz yumshatilgan. Masalan: "tig' kabi qalbiga sanchiladi" iborasi tarjimada "tig' kabi inson qalbiga sanchilardi" shaklida berilgan. Bu o'zbek o'quvchisi uchun yaqin va tushunarli bo'lsa-da, dramatik kuch biroz yumshatilgan. Forschadagi "خيرگی در آنها مشهود نبود" tarjimada "Ularda sinchkovlik sezilmasdi" deb berilgan. Shunday qilib, tarjima matn nafaqat mazmunni saqlab qolgan, balki o'zbek tilining ifodaviy imkoniyatlariga moslashtirilgan. Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan bu portret tasviri ayniqsa ko'zlar orqali ruhiy va hissiy elementlarni aks ettirishda samarali bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bo'zo'rg Alaviyning چشم‌هایش "Uning ko'zlari" romanida portret tasviri qahramon obrazini yaratishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Muallif qahramonlarning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali ularning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va xarakterini ochib beradi. Asarda ko'z tasviri alohida semantik va ramziy ma'no kasb etadi. Bu tasvir qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, roman portret

tasvirlari orqali qahramon obrazini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi hamda muallifning badiiy mahoratini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi [Darslik]. Toshkent: O‘QITUVCHI nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Xudoyberdiyev, E. (2008). Adabiyotshunoslikka kirish [Darslik]. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
3. Ochilov, E. (2010). Til va tarjima. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Alavi, B. (1990). چشمه‌هایش [Roman, Fors tilida]. Tehran: Chapi nashriyoti.
5. Alaviy, B. (2025). Uning ko‘zlari [Forschadan A.Quronbekov tarjimasi چشمه‌هایش]. Toshkent: Nasim Kutub nashriyoti.